

Barcha sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib kelgan bugungi kunda hayotni ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish mushkul. Sababi ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy madaniyat masalalari

Fuqarolarning hukumatga murojaati, davlat va jamoat tashkilotlarining aholiga axborotiyu murojaatlari, turli savdo kompaniyalarining reklamalari, har xil sohalardagi bahs-munozaralar bugun aynan mana shu – ijtimoiy tarmoqlarda olib borilmoqda. Ammo ko‘ngilni xira qiladigan bir narsa bor, bu ijtimoiy tarmoqlardagi huquqiy madaniyat masalasidir.

Tan olish kerakki, ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentida huquqiy madaniyat hali yetarli darajada shakllanib ulgurmadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy madaniyatning yetishmasligi nimalarda namoyon bo‘lyapti?

Birinchidan, shaxs qadr-qimmatini kamsituvchi holatlar ijtimoiy tarmoqlarda juda ko‘payib bormoqda. Masalan, biror foydalanuvchi “Facebook” ijtimoiy tarmog‘iga hali aybi isbotlanmagan, sud tomonidan aybdor deb topilmagan insonning suratini joylab “mana bu o‘g‘ri” yoki “jinoyatchi”, “poraxo‘r” kabi so‘zlar bilan haqoratlaydi. Hali hech narsadan xabari yo‘q omma ham surat joylangan post tagida haqoratlar yomg‘irini davom ettiradi.

Bu ayniqsa davlat hokimiyati organlari vakillariga nisbatan koʻp qoʻllanadi.

Vaholanki, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora koʻrib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi” deb belgilab qoʻyilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-moddasida “Har kim oʻz shaʼni va obroʻsiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega” deb qayd etilgan.



Misol tariqasida keltirib oʻtsak: 2022-yilning iyul oyida Andijonda prezident va hokimni “TikTok”da haqoratlagan fuqaro ozodlikdan mahrum etildi[1].

Andijonda 41 yoshli erkak Oʻzbekiston prezidenti va viloyat hokimini haqorat qilgani uchun 2 yilu 2 oyga qamaldi. Jinoyat kodeksining 158-moddasi 3-qismida Oʻzbekiston prezidentini omma oldida haqoratlash yoki unga tuhmat qilganlik uchun 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Andijon tumanida yashovchi fuqaro “TikTok”da davlat rahbaridan tashqari viloyat hokimi Shuhrat Abdurahmonovni ham haqoratlagan.

Har bir inson shuni yodda tutishi lozimki, erkinlik degani qonunsizlik degani emas. Erkinlik oʻz fikrini mustaqil bildirishni nazarda tutadi, bu kimnidir ijtimoiy tarmoqda haqorat qilish yoki unga nisbatan har xil boʻhtonlar yogʻdirish mumkinligini anglatmaydi.

Inson oʻz haq-huquqlari barobarida boshqalarning huquqlarini ham anglasa unda huquqiy madaniyat shakllangan boʻladi. Vaholanki, huquqiy demokratik jamiyatning sharti odamlarning oʻz haq-huquqlaridan tashqari boshqalarning huquqlarini ham bilishi, hurmat qilishidir.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda alohida guruhlar tashkil etib kimlarnidir asossiz koʻkka koʻtarish yoki kimlarnidir yerga urish holatlari koʻpayib bormoqda. Bu koʻpincha soxta profillar ochish orqali amalga oshiriladi. Ammo har bir inson shuni unutmasligi kerakki, erkin fikr aytish imkoniyatidan shunday yoʻllar bilan foydalanish mumkin deb oʻzini oqlash oʻsha insonlarning saviyasi nechogʻlik ekanidan dalolat beradi. Shuni yodda tushish zarurki, axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda xoh soxta profil orqali, xoh ochiq profil orqali kimdir haqorat qilinar ekan, bunga albatta qonun oldida javob beriladi.

Bu borada qonunchiligimizda normalar belgilab qoʻyilgan. Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisdagi kodeksning 41-moddasida haqorat qilish, yaʼni shaxsning shaʼni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻlishi qayd etilgan.

Jinoyat kodeksining “Haqorat qilish” deb nomlangan 140-moddasida haqorat qilish, yaʼni shaxsning shaʼni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash, basharti, shunday harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilgandan keyin sodir etilgan boʻlsa – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz

[1] https://kun.uz/news/2022/07/30/andijon-hokimini-tiktokda-haqorat-qilgan-fuqaroning-qamalishi-boyicha-izoh-berildi

qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan.

Nashr qilish yoki boshqacha usulda koʻpaytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internetda joylashtirish orqali haqorat qilish – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan toʻrt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Haqorat qilish:

a) jabrlanuvchini oʻz xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan bogʻliq holda;

b) xavfli retsidivist tomonidan yoki tuhmat qilganligi uchun ilgari sudlangan shaxs tomonidan qilingan boʻlsa – bazaviy hisoblash miqdorining toʻrt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi deb belgilangan.

Shuningdek, boshqa shaxsni ijtimoiy tarmoqlarda sharmanda qilish maqsadida yolgʻon maʼlumotlarni tarqatish uchun ham qonunchilikda jazo belgilangan.

Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 40-moddasiga koʻra tuhmat, yaʼni bila turib yolgʻon, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Mazkur kodeksning 202^2-moddasida shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obroʻsizlantirilishiga olib keladigan yolgʻon axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikasiya tarmoqlarida yoki internetda tarqatish, – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab boʻlishi koʻzda tutilgan.

Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolgʻon axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikasiya tarmoqlarida yoki internetda tarqatish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi deb belgilangan.

Yuqorida masalaning qonuniy tarafini koʻrib chiqdik. Yana bir muhim jihati esa oʻzining omma tarafidan sazoyi etilganini koʻrgan, eshitgan shaxsda ogʻir psixologik tushkunlik paydo boʻladi odatda. Bundan soʻng u shaxs stress holatida oʻziga yoki atrofdagilariga turli ziyon yetkazishi mumkin.

Shuning uchun kimdir haqida ijtimoiy tarmoqqa maʼlumot joylashdan avval buning huquqiy tomonlari borligini unutmaslik kerak.

Ikkinchi masala. Aksariyat ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari koʻp holatlarda tekshirilmagan maʼlumotlarni tarqatishadi. Buning natijasida boshqalarda notoʻgʻri fikr va xulosalar paydo boʻladi. Aslini olganda islom dinida ham, dunyoviy ilmlarda ham asossiz, tekshirilmagan xabarlarni tarqatish maʼqullanmaydi. Masalan, "Telegram" ijtimoiy tarmogʻida ichki ishlar organi xodimlarining bir fuqaroni ushlab xizmat avtomobiliga solishayotgani haqidagi video tarqaldi. Odamlar esa videoga turli salbiy izohlar qoldirishdi. Asl holatdan bexabar insonning bu holatga nisbatan gʻazabi, nafrati qoʻzishi tabiiy hol albatta. Odamlarning salbiy izoh yozishiga esa foydalanuvchining video tagiga "Ichki ishlar organlari beayb fuqaroni tutib ketmoqda" deb yozgani sabab boʻldi.

Bu kabi holatlar, albatta, davlat organlariga, ularning masʼullariga nisbatan aholining noroziligini tugʻdiradi. Chunki omma ehtirosga toʻla, bunaqa holatlarda ommani aql emas, hissiyot boshqaradi. Bundan tashqari falon joyni suv bosdi, falon joyga oʻt ketdi degan mazmundagi asossiz maʼlumotlar tarqatish holatlari koʻp uchraydi. Tekshirilganda esa dunyoning boshqa bir chetida roʻy bergan hodisa ekanligi maʼlum boʻladi. Bu maʼlumotni uni tarqatuvchi keyinchalik oʻchirib tashlasa ham, lekin bu yolgʻon maʼlumot ommada vahima uygʻotishi va turli salbiy holatlarga sabab boʻlishi mumkin.

Jinoyat kodeksining "Yolgʻon axborot tarqatish" deb nomlangan 244^6-moddasida shaxsning qadr-qimmati kamsitilishiga yoki uning obroʻsizlantirilishiga olib keladigan yolgʻon axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internetda tarqatish, shunday harakatlar uchun maʼmuriy jazo qoʻllanilgandan keyin sodir etilgan

bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanashi belgilangan.

Jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborotni tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikasiya tarmoqlarida yoki internetda tarqatish, ushbu kodeksning 244[1]-moddasi (Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish)da nazarda tutilgan jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmagan taqdirda, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ikki yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) ko‘p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) ommaviy tadbirlar jarayonida yoki favqulodda vaziyat holatida;

b) juda ko‘p miqdorda zarar yetkazilgan yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lgan holda;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchi har bir shaxs nafaqat tarqatayotgan ma’lumotlarini, balki olayotgan ma’lumotlarini ham tekshirishi, asl holat qandayligini bilishi zarur.

Bu boradagi xorij tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, bugungi kunga kelib ko‘plab mamlakatlar qonunchiligida internet orqali boshqalarni haqoratlash masalasiga qat’iy qoralar belgilanganini ko‘rish mumkin.

Masalan, Germaniyada “Ijtimoiy tarmoqlarda huquqni qo‘llashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi qonun[2] amal qiladi. Qonunda konstitutsiyaviy tuzumga, millatlar o‘rtasidagi ahillikka zid bo‘lgan, natsizm g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, shaxs, uning sha’ni, qadr-qimmatini kamsituvchi, shaxsiy hayot daxlsizligiga daxl qiluvchi, bolalar pornografiyasi bilan bog‘liq ma’lumotlarni targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish taqiqlanadi. Shveysariyada ham tuhmat va haqorat (Defamation)[3] uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Inson qonunga amal qilishni boshqalardan talab qilishdan avval o‘zi qonunlarga rioya etishi zarur. Ana shunda huquqiy demokratik davlat qura olamiz.

Maqolamizni fransuzlarning ulug‘ mutafakkiri Sharl-Lui de Monteskening quyidagi iborasi bilan xulosalaymiz: “Siyosiy erkinlik xohlagancha ish tutish degani emas. Erkinlik qonun yo‘l qo‘ygan har qanday ishni bajarish huquqi bilan belgilanadi. Agar fuqaro qonunda taqiqlangan ishga qo‘l ursa, erkinlikdan mahrum bo‘ladi”.

Furqat ALIMARDONOV,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

[2] Act to Improve Enforcement of the Law in Social Networks. https://www.bmj.de/SharedDocs/Gesetzgebungsverfahren/Dokumente/NetzDG_engl.pdf?__blob=publicationFile&v=2.
[3] Swiss Criminal Code. https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/54/757_781_799/en.